# INSON QADRI ULUG’LANDI




INSON QADRI ULUG’LANDI

Xalqimizning ho’p ajoyib naqllari bor. "Mehnat insonni ulug’laydi" iborasi shulardan biridir.

Darhaqiqat, kimki Vatan va xalq manfaati yo’lida fidoyilik ko’rsatsa, u albatta elning olqishiga, haqning e’tirofiga sazovor bo’ladi.
Hamshahrimiz Robiya Tulyakova ham ana shunday insonlar sirasiga kiradi. Bugun, Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev boshchiligida shahar Mahalla va Nuroniylar bo’limining mas’ullari birgalikda "Bog’zor" mahallasida istiqomat qilayotgan elparvar inson, mehnat faxriysi, "Buvijonlar maktabi" jamoatchilik kengashi raisi Robiya Xasanovnaning xonadoniga tashrif buyurib, xoji onani tabarruk 80 yosh tavallud ayyomi bilan tabrikladilar.

Shahar hokimi duogo’y onaxonni sektor rahbarlari, nuroniylar va keng jamoatchilik nomidan eng ezgu tilaklar ila samimiy muborakbod etdi.
Hozirda shu qutlug’ yoshida ham g’ayratli va shijoatli munis onaxonimiz Vatan va xalq

o'zining beminnat hissasini qo'shib kelayotir. Ana shunday mehnati tufayli hamshahrimiz xalqning e'zozi va hurmatiga sazovor bo'lib kelmoqdalar.

Zero, "HALOL MEHNAT INSONNI DOIMO ULUG'LAYDI".







Image not found or type unknown